



SINTAKTIK SATHDA TRANSFORMATSIYA HODISASI

Qarshi davlat universiteti, doktoranti

Ergashev Sardor Kosimovich

sardorergashev654@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada sintaktik sathning ba'zi birliklari orasida transformatsiya hodisasining yuz berishi haqida so'z boradi. Shuningdek, mazkur hodisa haqida nazariyalar hamda misollar keltirib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *tobe-hokim transforma, hosila transforma, sintaktik bo'linish, lingvistik vosita, shakliy o'zgarish.*

TRANSFORMATION PHENOMENON AT THE SYNTACTIC LEVEL

Doctoral student of Karshi State University

Ergashev Sardor Kosimovich

sardorergashev654@gmail.com

Abstract: *The article discusses the occurrence of the transformation phenomenon among some units of the syntactic level. Theories and examples of this phenomenon are also presented.*

Keywords: *subordinate-dominant transform, derivative transform, syntactic division, linguistic means, formal change.*

ЯВЛЕНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ НА СИНТАКСИЧЕСКОМ
УРОВНЕ



Кариинский государственный университет, докторант

Эргашев Сардор Косимович

sardorergashev654@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается феномен трансформации между некоторыми единицами синтаксического уровня. Также приводятся теории и примеры этого явления.

Ключевые слова: подчиненная-властная трансформация, производная трансформация, синтаксическое членение, лингвистическое средство, формальное изменение.

KIRISH. Bugungi kunda transpozitsiya hodisasi til birliklari va ularni chuqur o'rganishda katta ahamiyatga ega unsurlardan biri hisoblanmoqda. Milliy tilimiz taraqqiy etib, tobora sayqallashib borar ekan, uni tadqiq etish, hozirda yechim kutayotgan ayrim noaniq qarashlar haqida aniq nazariyalar ishlab chiqish tilshunoslar oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi kunda tilimizni o'rganishda tilshunoslarimiz umumiy va maxsus usullarni qo'llamoqdalar. Ilmiy-texnik jihatdan rivojlanayotgan hozirgi davr tilshunos mutaxassislar uchun alohida qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Tezlashgan zamon tilimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Sintaktik transformatsiya til hodisalarining bir turi bo'lib, u faqat manba va tarjima tillarida parallel sintaktik tuzilmalar mavjud bo'lgan hollardagina sodir bo'ladi. Transformatsion hodisalar tilimizda mavjud boshqa hodisalar singari tarjima amaliyotida ham kam hollarda uchraydi.

ВВЕДЕНИЕ. В настоящее время явление транспозиции считается одним из важнейших элементов в глубоком изучении языковых единиц. По мере развития и совершенствования нашего национального языка его исследование, а также разработка конкретных теорий о некоторых неопределенных взглядах, требующих разрешения, ставят перед лингвистами важные задачи. Сегодня при



изучении нашего языка лингвисты применяют как общие, так и специальные методы. Современный этап научно-технического развития создает особые трудности для специалистов в области языкознания. Ускоренный темп времени неизбежно оказывает влияние и на наш язык. Синтаксическая трансформация представляет собой разновидность языковых явлений, которая происходит только при наличии параллельных синтаксических структур в исходном и переводящем языках. Трансформационные явления, как и другие явления, существующие в нашем языке, редко встречаются в переводческой практике.

ASOSIY QISM. Ma'lumki, tilimizning sintaktik sathi boshqa til sathlarining imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi, tilimizning ko'zgusi hisoblanadi. Shu bois, aynan shu sath imkoniyatlarini o'rganish va ushbu sathda transformatsiyaning o'rni haqida to'xtalib o'tish asosiy vazifalardan biridir. O'zbek tilida so'z tartibida ko'proq moslashuvchanlikni namoyon etishda nutqiy almashishlar tez-tez yuzma-yuz kelganligi kuzatiladi. Shunday ekan, bunday almashtirishlar mantiqqa ta'sir qilmay, balki so'z birikmasi va gapning tuzilishini o'zgartirishi kuzatiladi. Bunday transformatsiyalar garchi passiv bo'lsa-da, til sathlarida o'z o'rniga ega. Tilshunos olim R.Rasulov ta'kidlaganidek "Transformatsion tahlil usuliga ko'ra sintaktik konstruksiyalar (qurilmalar) muayyan qoidalar asosida o'zgaradi, ya'ni boshqacha shaklga, ko'rinishga ega bo'ladi, transformatsiyalashadi. Bunday transformatsiyalar orqali muayyan sintaktik konstruksiyaning - qurilmaning bir necha shakllari aniqlanadi, o'zaro farqlanadi, ularning mohiyatiga, tarkibiga chuqurroq kiriladi". [1; 278]

Hozirgi o'zbek adabiy tilining sintaktik sathida transformatsiyaning bir necha ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

1. So'z birikmasi va gap transformatsiyasi
2. Ergashgan qo'shma gaplarning sodda gapga transformatsiyasi
3. Qo'shma gap turlarining o'zaro transformatsiyasi
4. Ko'chirma gaplarning o'zlashtirma gapga transformatsiyasi



Grammatik tobe-hokim bog‘lanishning bir turi sifatida so‘z birikmalari orqali gaplarni hosil qilish, ya’ni so‘z birikmalaridan gaplarning o‘zgarishini yuzaga keltirish an’anaviy tilshunoslikda uchraydigan hodisalardan biridir. Bu taqqoslashdagi har ikkala birlikning tobe-hokim aloqa asosida shakllanishi hech kimga sir emasdir. Biroq, so‘z birikmalari gaplarga o‘zgartirilganda ularning farqlari kesimlik shaklining mavjud yoki mavjud emasligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, so‘z birikmalarini gaplarga o‘zgartirishda ot yoki fe‘l kesimini yuzaga keltiruvchi vositaga tayanish maqsadga muvofiqdir. Misol uchun: *obod mahalla, mehribon ustoz, qadimiy shahar* kabi birikmalarning o‘zgarishlari quyidagi jadvalda yaqqol ko‘rinadi.

1-jadval

So‘z birikmasi	Transformatsiyasi	Hosilaning bog‘lanish turi
Obod mahalla	Mahalla oboddir	Tobe-hokim
Mehribon ustoz	Ustoz mehribondir	Tobe-hokim
Qadimiy shahar	Shahar qadimiydir	Tobe-hokim

Tilimiz g‘oyat boy imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu imkoniyatlarning yana bir ko‘rinishi sifatida ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gaplarga aylantirish masalasini ta’kidlash mumkin. “Tarkibida ko‘rsatish olmoshi mavjud bo‘lgan ergashgan qo‘shma gaplar tegishli sodda gaplar bilan ma’nodosh bo‘la oladi. Ergash gapni bosh gap tarkibida tegishli ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan gap bo‘lagi o‘rniga qo‘yish orqali sodda gapga aylantirish mumkin” [2; 53]. S. Yeseninning ona haqidagi quyidagi misralariga e’tibor qarataylik:

Oh, sen bo‘lsang eding
Mening yonimda.
Kelinlik bo‘lardim,
So‘nggi armonim
- Nabira suyardim



Asrab jonimda. (S. Yesinin) [4]

Ushbu misolning grammatik tahlilida uning hol ergash gapli qo'shma gap ekanligi aniqlanadi. Shuningdek, birinchi gapning kesimi nomustaqil, shart mayli shaklida bo'lib, ikkinchi gapning kesimi mustaqil sodda tuzilishli kesimdir. Bu misolni transformatsiya hodisasiga tortilsa, quyidagi ko'rinish hosil bo'ladi: // Sen yonimda bo'lganingda so'nggi armonim bo'lmish kelinlik, nabiralarni jonimdek suyish orzusiga yetardim. Ma'lumki, tilshunosligimizda tahlil metodlari bir nechta bo'lib, ular orasida transformatsion metod ham o'z o'rniga ega. Zero, qayd etilganidek "Transformatsion metod zamonaviy usullar orasida eng mukammali hisoblanadi. Ushbu metod tildagi sintaktik jarayonni tushuntirish imkoniyatiga ega bo'lgani bilan tavsiflanadi.". [3;170]

2-jadval

Ergashgan qo'shma gap	Sodda gapga transformatsiyasi	Hosilaning turi
Oilang bo'lsaydi, Do'sting bo'lsaydi, Senga mayxonalar Bo'lmasdi makon. [4]	Oilang, do'stlaring bo'lganda senga mayxonalar begona bo'lardi	Sodda gap

Qo'shma gaplarning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular bog'langan, bog'lovchisiz va ergash qo'shma gaplardir. Bu turlar orasida transformatsiya hodisasi azaldan mavjud bo'lib, bir xil fikrni turli shakllarda ifodalash imkonini beradi. Keltirilgan gaplar orasida aynan shu hodisa ro'y berishi kuzatilmoqda. Qo'shma gaplarning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular bog'langan, bog'lovchisiz va ergashgan qo'shma gaplardir. Bu turlar orasida transformatsiya hodisasi azaldan mavjud bo'lib, bir xil fikrni turli shakllarda ifodalash imkonini beradi. Quyida keltirilgan gaplar orasida aynan shu hodisa ro'y berishi kuzatilmoqda. Masalan: "Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan." [5].



Keltirilgan misol ergashgan qo'shma gap bo'lib, uning bog'lovchisi *z* va bog'langan qo'shma gap shaklidagi transformalarini shakllantirish mumkin. *Qamchingdan qon tomadi, yuzta xotin orasida ham rohatlanib yashaysan. Qamchingdan qon tomadi, shuning uchun yuzta xotin orasida ham rohatlanib yashaysan.* Ko'rinadiki, birinchi gap ergashgan qo'shma gap bo'lib, uning barcha transformalarida aynan bir fikr ifodalangan. Gapning turli a'zolari tomonidan tuzilgan semantik guruhlarining kommunikativ yuki turli darajalarda turli xil lingvistik vositalar bilan ta'kidlanadi. Shunday qilib, o'zbek tilida boshlang'ich o'rinda kelgan mavzu ko'pincha kichik kommunikativ yukka ega bo'lgan qismlarga aylanadi va jumla oxiriga kelib asta-sekin o'sib boradi. Bu grammatik ega va kesimning sintaktik bo'linishi bilan mos keladi. Bo'laklarning sintaktik vazifasini o'zgartirish orqali so'zlarning semantik tartibi sintaktik tartibga moslashtiriladi. Gaplarning transformalari har xil bo'lib, grammatik shakllarida farqlar kuzatilsa-da, gapning ko'zlangan asosiy mazmunida farq sezilmaydi. Bu o'rinda transformatsiya hodisasining qoidalariga zid bo'lgan holat yo'q. Quyidagi jadvalda bu haqda batafsil ma'lumot beriladi. Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, qo'shma gap turlari o'zaro bir-biri bilan transformatsion almashinish xususiyatiga ega. Bog'langan qo'shma gaplarni bog'lovchisiz yoki ergashgan qo'shma gaplarga, shuningdek, ayni sanalgan holatlarni aksincha almashtirish ham mumkin. Quyidagi jadvalda bu haqida to'liqroq ma'lumot beriladi.

3-jadval. Bog'langan qo'shma gaplarning bog'lovchisiz qo'shma gapga transformatsiyalanishi

Bog'langan qo'shma gap	Bog'lovchisiz qo'shma gapga transformasi	Ergashgan qo'shma gapga transformasi
Soqolining oqlig'iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham	Soqolining oqlig'iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas edi,	Soqolining oqlig'iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas edi shuning uchun tusida



uncha o'zgarish yo'q edi. [5]	tusida ham uncha o'zgarish yo'q edi.	ham uncha o'zgarish yo'q edi.
----------------------------------	---	----------------------------------

Transformatsiyalanishning yana bir turi sifatida ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirish jarayonini ham ko'rib chiqishimiz mumkin. "Boshqa shaxsning gapi ham ko'chirma gap, ham o'zlashtirilgan gap orqali ifodalanishi mumkin. Bunday holatlarda ko'chirma gap va o'zlashtirilgan gap ma'nodosh bo'ladi. Ko'chirma gap quyidagi shakliy o'zgarishlar orqali o'zlashtirilgan gapga aylantiriladi" [2; 84] Shunday ekan ko'chirma gapli qo'shma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirishda ular orasida grammatik va shakliy o'zgarishlar kuzatilsa-da asos yadro saqlanib qola beradi. Masalan: "Sening orzungni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?" deb meni ma'yus qildilar. [5] Hasanliga o'tkan gaplarni birin-birin aytib bergusi va "manim uylanishimga sen sabab bo'lg'an eding, endi uni mendan ajratdilar", deb undan o'z dardiga davo istagusi kelar edi. [5] Berilgan misollarning transformatsiyaga tortilgan hosilalari quyidagi jadvalda aks etadi.

4-jadval

Ko'chirma gap	O'zlashtirma gap shaklida transformatsiyalanishi
"Sening orzungni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?" deb meni ma'yus qildilar. [5]	Mening orzuyimni shu xonlar, shu beklar ishitib ijro qilmasligini aytib ma'yus qildilar.
Hasanaliga o'tkan gaplarni birin-birin aytib bergusi va "manim uylanishimga sen sabab bo'lg'an eding, endi uni mendan ajratdilar", deb undan o'z dardiga davo istagusi kelar edi. [5]	O'z dardiga Hasanliga o'tkan gaplarni birin-birin aytib "manim uylanishimga sen sabab bo'lg'an eding", endi esa uni ajratganini aytib dardiga davo istagusi kelar edi.



XULOSA. So‘z birikmasini gapga, qo‘shma gaplarni sodda gapga, qo‘shma gap turlarini o‘zaro va ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantirish jarayonida til birliklarini almashtirish, o‘zgarayotgan birlikning sintaktik tuzilishini qayta qurishga olib keladi. Bunday qayta qurish nutqning bir qismini o‘zgartirishda ham bir qator hollarda sodir bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan o‘zgartirishlarda qismlarni almashtirish moddiy shaklga tegishli bo‘lib, mantiqiy asosga ta’sir etmagan. Sintaktik tuzilmaning qayta o‘zgartirilishi berilgan birliklarning asosiy a’zolarini, ayniqsa ega (sub’ekt)ni almashtirish bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Bunday o‘zgartirishlardan foydalanish asosan o‘zbek tilida boshqa sathlarga qaraganda aynan sintaksisda faol qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R RASULOV. UMUMIY TILSHUNOSLIK. TOSHKENT: 2010, - 323 B.
2. ONA TILI: UMUMTA’LIM MAKTABLARINING 9-SINFI UCHUN DARSLIK /N.M. MAHMUDOV, A. NURMONOV, A.SH. SOBIROV.— TOSHKENT: ÌCHJ “TASBIR”, 2014.—128 B.
3. Z XOLMONOVA. TILSHUNOSLIKKA KIRISH. TOSHKENT: 2007, - 177 B.
4. [HTTPS://KH-DAVRON.UZ/KUTUBXONA/JAHON/SERGEY-YESENIN-POETRY.HTML](https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/sergey-yesenin-poetry.html)
5. [HTTPS://ARM.NAVOIY-UNI.UZ/WP-CONTENT/UPLOADS/2019/04/UTGAN_KUNLAR_ZIYOUZ_COM.PDF](https://arm.navoiy-uni.uz/wp-content/uploads/2019/04/UTGAN_KUNLAR_ZIYOUZ_COM.PDF)